

**SOLIQ TO‘LOVCHILARNING MADANIYATINI VA SOLIQLARNI
IXTIYORIY TO‘LASH UCHUN QULAYLIKLAR YARATISH****Begmurodov Dilshod Alimdjanovich***Sirdaryo viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i birinchi o'rinbosari**Tel: +998992350507, e-mail: dbekmurodov2018@inbox.ru*

Annotatsiya. *Maqolada hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida so‘liq to‘lovchilarning soliq to‘lashlari uchun juda ko‘p qulayliklar yaratilmoqda. Xususan, mazkur maqolada soliq to‘lash uchun maxsus platformalar. Shuningdek soliq madaniyatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan. Soliq to‘lovchilar va davlat o‘rtasida soliq to‘lash jarayonini ochiq hamda shaffof tarzda yo‘lga qo‘yish ularni munosabatlarini yaxshilashga qaratilgan islohatlar natijalari tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *soliq madaniyati, soliq tizimi, soliq islohotlar, soliq to‘lovchilar, soliq tushumlari, davlat byudjeti, soliq majburiyatlar.*

Аннотация. *В статье описывается создание множества удобств для налогоплательщиков при уплате налогов в Республике Узбекистан. В частности, рассматриваются специальные платформы для уплаты налогов. Также даны практические рекомендации по улучшению налоговой культуры. Проанализированы результаты реформ, направленных на установление открытого и прозрачного процесса уплаты налогов между налогоплательщиками и государством и улучшение их взаимоотношений.*

Ключевые слова: *налоговая культура, налоговая система, налоговые реформы, налогоплательщики, налоговые поступления, государственный бюджет, налоговые обязательства.*

KIRISH

Soliq tizimi har bir davlatning iqtisodiy barqarorligi hamda ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi eng muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Soliq to‘lash — jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan davlat byudjetiga qonun hujjatlarida belgilangan miqdor va muddatlarda pul shaklida majburiy va beg‘araz tarzda amalga oshiriladigan to‘lovdir. Soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish iqtisodiyotning jadal rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ular uchun adolatli va teng raqobat muhitini yaratish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, soliq

ma'muriyatchiligini yanada samarali qilishga qaratilgan chora tadbirlar ko'rib, mazkur sohada yangi qaror va huquqiy mexanizmlar joriy etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi O'RQ-1000-son Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 20-avgustda qabul qilinib, Senat tomonidan 2024-yil 23 oktabrda ma'qullandi. Ushbu qonun soliqlarni o'z vaqtida va qonunchilik talablariga muvofiq to'layotgan tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay shart sharoitlar yaratish hamda ularni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Mazkur islohotlar orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish, soliq to'lovchilar uchun soliq to'lash jarayonini soddalashtirish, shuningdek, turli imtiyoz va yengilliklar taqdim etish ko'zda tutilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va boshqa vakolatli organlarning hisobotlari asosida mavzu dolzarb statistik va tahliliy ma'lumotlar bilan boyitilgan..

METODOLOGIYA

Maqolada O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchilarining soliq to'lash madaniyati va uni shakllantirish uchun ilmiy tadqiqot metodlaridan, jumladan, statistik tahlil, solishtirma tahlil hamda so'rovnoma asosidagi empirik usullardan kompleks ravishda foydalanildi. Xususan, soliq madaniyati darajasini aniqlash va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish maqsadida mavjud ma'lumotlar asosida statistik tahlil amalga oshirildi. Mavjud holat xalqaro tajribalar bilan solishtirilib, turli mamlakatlarda soliq madaniyatini shakllantirishda qo'llanilgan yondashuvlar o'rganildi. Bundan tashqari, jamiyatimizning faol bo'g'ini hisoblangan yoshlar o'rtasida maxsus so'rovnomalarda o'tkazilib, ularning soliq tizimiga bo'lgan munosabati, xabardorlik darajasi hamda ijtimoiy mas'uliyat borasidagi qarashlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA TAHLIL NATIJALARI

O'zbekiston Respublikasida soliq to'lash madaniyatini shakllantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ularga qulaylik yaratish, hisob-kitoblarini osonlashtirish maqsadida soliq tizimining raqamlashtirilishiga doir keng ko'lamli ishlar olib borildi. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga pul mablag'larini o'tkazuvchi rezident va norezident soliq to'lovchilarning talab va takliflaridan kelib chiqib, 2020-yilda O'zbekiston Davlat soliq qo'mitasi tomonidan "Soliq" mobil ilovasi shakllantirildi, hamda 2026-yil 1-mart xolatiga ko'ra mobil ilovadan 16 millionga yaqin foydalanuvchi ro'yhatdan o'tgan.



1-rasm. Soliq mobil ilovasidan foydalanish statistikasi¹³⁰

1-rasmda, 2026-yil 1-mart holatiga ko‘ra “Soliq” mobil ilovasining foydalanuvchilari soni 15 901,6 ming kishini tashkil etgan. Shundan 14 977,8 ming nafari faol foydalanuvchi sifatida ro‘yxatga olingan bo‘lib, 11 514,5 ming foydalanuvchi o‘z shaxsini tasdiqlagan. 2026 yil fevral oyi davomida ilovadagi funksiyalardan umumiy foydalanish 143,5 mln. martani tashkil etgan. 1-rasmdagi statistikadan ham ko‘rish mumkin O‘zbekiston aholisida soliq madaniyati shakllanib borayotganini hamda soliq madaniyati deganda fuqarolarning soliqlarga nisbatan ijobiy munosabati, ularni ongli ravishda, o‘z ijtimoiy javobgarligini anglagan holda to‘lashga tayyorligi tushuniladi.

Ilovada xizmatlardan foydalanish bo‘yicha eng ko‘p murojaat etilgan xizmatlar quyidagilar bo‘lgan: - keshbek – 50 073 376 marta - soliqlarni to‘lash – 29 251 334 marta - o‘zini o‘zi band qilish – 1 268 992 marta - E-ijara – 1 131 616 marta - mening uyim – 10 076 200 marta - mening jarimalarim – 3 995 334 marta - platformalar bo‘yicha taqsimotda foydalanuvchilarning 60,3 foizi Android, 39,7 foizi esa iOS operatsion tizimi orqali foydalanayotganligi aniqlangan. Ilovada keshbek funksiyasining keskin yuqori ko‘rsatkich (143,5 milliondan ortiq foydalanish) bilan ajralib turishi fuqarolar o‘rtasida rasmiy xaridlar uchun chek olish odatining kengayganini anglatadi. Bu esa, norasmiy iqtisodiyot qisqarishiga xizmat qiladi va fiskal intizomni mustahkamlashda muhim omilga aylanadi. Aynan shu tarzda

¹³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Soliq Qo‘mitasi rasmiy saytidan olingan ma‘lumot. <https://gov.uz/oz/soliq/news/view/151737>

davlat fuqarolarning iqtisodiy faolligini rag‘batlantirish orqali soliq bazasini kengaytirish imkoniyatini yaratmoqda.

Shuningdek, o‘zini o‘zi band qilish funksiyasi orqali 1 268 992 dan ortiq foydalanuvchining xizmatdan foydalanishi norasmiy mehnat bandligini rasmiylashtirishga bo‘lgan ijobiy intilishni ko‘rsatadi. Bu harakatlar fuqarolarning soliqqa tortish tizimiga ongli ravishda kirib kelishini, o‘z daromadlarini ochiq deklaratsiya qilishga tayyorligini anglatadi.

Soliqlarni to‘lash funksiyasidan 29 251 334 marta foydalanilgan bo‘lib, bu bevosita soliq majburiyatlarini mobil ilova orqali bajarish qulayligining va shu orqali ongli to‘lov intizomining oshayotganidan dalolat beradi. Bunday raqamlar raqamli vositalarning soliq madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni juda muhim ekanini tasdiqlaydi.

Yana bir ayni haqiqatni tan olishimiz kerak, soliq to‘lovchilar tomonidan bugungi kunda “soliqlarni majburiy emas- ixtiyoriy to‘lash” tamoyili asosida faoliyat yuritayotgani raqamli iqtisodiyotimizning o‘sib borayotganidan dalolat beradi.



2-rasm. Soliqlarning ixtiyoriy to‘lanish darajasi¹³¹

2026-yilning yanvar-mart oylarida respublika miqyosida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajaralishi 88%ni tashkil etdi. Bu borada eng

¹³¹ O‘zbekiston Respublikasi Soliq Qo‘mitasi rasmiy saytidan olingan ma‘lumot. <https://gov.uz/oz/soliq/news/view/151737>

yaxshi ko‘rsatkich yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha HSI da 96 foiz qayd etildi. Jumladan, Toshkent shahrida 94 foiz, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 91 foiz, Samarqand viloyatida 90 foizni tashkil etib kelmoqda.

Mobil ilovaning keng tarqalishi va doimiy yangilanib borayotgan funksiyalari, soliq to‘lovchilarning o‘z huquq va majburiyatlarini anglash darajasini oshiradi. Natijada, soliq to‘lovchilarini nazorat qilish emas, balki ularga xizmat ko‘rsatish tamoyili ustuvor bo‘lgan zamonaviy yondashuv shakllanmoqda. Bu esa davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi va soliq intizomi bilan birga iqtisodiy barqarorlikka zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda soliq to‘lovchilarning soliq madaniyatini shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar samarasi sifatida jamiyatda soliqqa nisbatan ijobiy munosabat, ongli to‘lov intizomi hamda fuqarolik javobgarligi ortib bormoqda. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar, xususan “Soliq” mobil ilovasi va “Soliq-hamkor” tizimining joriy etilishi soliq to‘lovchilarning faol ishtirokini ta‘minlabgina qolmay, balki ularni soliqqa oid qarorlarni ongli ravishda qabul qilishga undamoqda. Shuningdek, davlat va fuqarolar o‘rtasida ochiq va shaffof muloqot muhitining shakllanayotgani soliq tizimiga bo‘lgan ishonchni oshirgan.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- soliq madaniyatini oshirish bo‘yicha ma‘rifiy ishlarni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish – maktab, oliy ta‘lim muassasalari va OAV orqali aholining soliqqa oid bilim va tushunchalarini oshirish, ayniqsa, yoshlarda soliq to‘lash madaniyatini shakllantirish muhimdir.

- raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish – “Soliq” mobil ilovasining funksiyalarini doimiy yangilab borish, foydalanuvchilarga interaktiv xizmatlar ko‘rsatish orqali soliq to‘lash jarayonlarini maksimal darajada soddalashtirish lozim.

- fuqarolik nazorati institutini kuchaytirish – “Soliq-hamkor” kabi tashabbuslarni rag‘batlantirish orqali fuqarolarning soliq qonunchiligini buzilish holatlari haqida axborot berish motivatsiyasini kuchaytirish mumkin.

- soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish – o‘z vaqtida va to‘liq soliq to‘lovchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun qo‘shimcha yengilliklar yoki imtiyozlar joriy etilishi, ijobiy tajribani ommalashtirishga xizmat qiladi.

- norasmiy iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni davom ettirish – chek berish madaniyatini kuchaytirish, naqd pulsiz to‘lovlar ulushini oshirish orqali soliq bazasini kengaytirish va byudjet barqarorligini mustahkamlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, soliq madaniyatini shakllantirish – bu nafaqat fiskal siyosat masalasi, balki ijtimoiy ong va madaniyat darajasining ko‘zgu hisoblanadi. Davlat organlari

va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish orqali yurtimizda ijtimoiy adolat, barqaror iqtisodiy o‘sish hamda fuqarolik mas’uliyatini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

[1]. OECD. (2021). Building Tax Culture, Compliance and Citizenship – A Global Source Book on Taxpayer Education. OECD Publishing.

[2]. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 9-10-12-moddalar (<https://lex.uz/docs/-4674902>) <https://lex.uz/docs/-4674902>

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi – <https://soliq.uz> (<https://soliq.uz/>) 4. World Bank Uzbekistan. “Uzbekistan Tax Reform Program.” – <https://worldbank.org> (<https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan>)

5. Review.uz. “Soliq islohotlari va soliq tushumlari o‘sishi.” – <https://review.uz> (<https://review.uz/>)

6. O‘zbekistondagi eng faol onlayn nashrlardan biri - <https://Kun.uz> (<https://Kun.uz>)